

HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASI TARAQQIYOTIDA TAFAKKURNING RIVOJLANISHI

Rafaelova Sayda Rustam qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14676442>

Annotaciya. Ushbu maqolada Psixologiya fanining predmeti va rivojlanish tarixi, sohalari va tadqiqot metodlari to'g'risida malumotga ega bo'lasiz. Psixologiya uzoq yillardan beri rivojlanishda davom etdi va yangi g'oyalar va istiqbollar kiritildi. Psixologiya sohasidagi so'nggi tadqiqotlar inson tajribasining ko'p jihatlarini, xulq-atvorga biologik ta'sirlaridan ijtimoiy va madaniy omillarning ta'sirini ko'rib chiqilgan holda hozirgi zamonda ham rivojlanish bosqichiga egaligini ko'rsatadigan mezonlar haqida aytiladi.

Kalit so'zlar: Psixologiya, shaxs, rivojlanish, muxid, faoliyat psixologik jarayonlar, texnika va texnologiya, sanaot.

РАЗВИТИЕ МЫШЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. В этой статье вы получите информацию о предмете и истории развития психологии, областях и методах исследования. Психология развивается на протяжении многих лет, а также представлены новые идеи и перспективы. Речь идет о человеческом опыте, о критериях, показывающих, что он имеет стадию развития даже в наше время, учитывая множество аспектов, от биологического воздействия на поведение до влияния социальных и культурных факторов сказано.

Ключевые слова: Психология, личность, развитие, труд, психологические процессы, техника и технология, промышленность.

THE DEVELOPMENT OF THINKING IN THE DEVELOPMENT OF MODERN PSYCHOLOGY

Abstract. In this article, you will get information about the subject and history of the development of psychology, fields and research methods. Psychology has been developing for many years and new ideas and perspectives have been introduced. The latest research in the field of psychology is about human experience. about the criteria that show that it has a stage of development even in modern times, considering many aspects, from biological effects on behavior to the influence of social and cultural factors it is said.

Key words: Psychology, personality, development, work, psychological processes, technique and technology, industry.

Hozirgi zamon Psixologiyasi rivojida biz sanoatdagi oddiy bir halottan misol keltiramiz: Sanaot transportida va harbiy ishlarda psixologik faktorlarni, ya'ni kishining imkoniyatlari, bilish

jarayonlari-idroki, xotirasi, tafakkurini, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari-xarakteri, temperamenti, reaksiyalarining tezligi va boshqalarni hisobga olishga to'g'ri keladi. Tovushdan tez hozirgi zam on samolyotlarida, ulkan elektrosistemalarning operativ-dispatcherlik uchastkalarida ishlovchi kishilar juda kichik vaqt ichida tez qaroiga kelishiga to'g'ri keladi, aks holda avariyalarga sabab bo'lishi mumkin. Ana shunday murakkab sharoitda ishlay olish uchun kishilarda imkoniyat bor-yo'qligini, ularning shu ishga yaroqli yoki yaroqsiz ekanligini aniqlashda psixologiya fani oldiga muhim talablar qo'yiladi.

K.R.Megreldzening ta'kidlashicha, insondagi biror bir ruhiy hodisa ijtimoiy omilni hisobga olmasdan turib, to'g'ri tushuntirilishi mumkin emas. Bu narsa birinchi navbatda tafakkurga taalluqlidir.

Tafakkurni bo'lsa ijtimoiy hayotning boshqa ko'rinishlarisiz o'rganish mumkin emas.

Inson tafakkurining usullari nerv tizimida ham, miyasida ham emas, balki bir davrda mana shunday idrok etishga, o'ylashga, ishlashga, boshqa bir davrda esa nerv faoliyatini boshqacha ishlashga yo'llaydigan ijtimoiy sharoitdadir. Insonlar fikrlari va qarashlari individual tartibda emas, ijtimoiy munosabatlar tufayli sodir bo'ladi.

Bu haqda *K.R.Megreldze shunday yozadi: inson tafakkuri tabiiy va biologik qonunlar bo'yicha emas, balki ijtimoiy - tarixiy qonuniyatlar yo'lida harakatlanadi. Insonning fikrlash usuli awalo ijtimoiy hodisadir.*

Fikr hech qachon o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, fikr biror narsa haqida, biror predmet haqida bo'lishi mumkin. Predmetsiz fikrning bo'lishi mumkin emas. Misol uchun hozirgi zamon psixologiyasida ranglarni sezish yo'lqiz to'r pardasidagi jarayonlar bilangina emas, balki miya po'stida yuzaga keladigan boshqa jarayonlar bilan sham boqlik ekanligi tog'risidagi ma'lumot mavjuddir. Zamonaviy ma'lumotlarga binoan, tayoqchalarda ko'rish purpuri degan maxsus modda borligi isbotlangan. Ko'zga yorug'lik ta'sir etganda ko'rish purpuri kimyoviy yo'l bilan parchalanib, tarkibiy qismlarga bo'linadi va mazkur jarayon ko'rish nervini qo'zqatib, yorug'lik sezgisi qosil qiladi, qorong'ilikda esa purpur o'z funksional holatini qayta tiklaydi. Psixologiya fanida ilmiy tadqiqotlarning integratsiyalashuvi va differentsiatsiyalash jarayonlari ro'y beradi.

Xususan, psixologiyaning jadal rivojlanishi uning differentsiatsiyasiga psixologiya fanlari qator sohalarining, shu jumladan, psixologiyani boshqa fanlar bilan bog'lovchi fanlararo sohalarining yuzaga kelishiga olib keldi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, psixik jarayonlarning asosi bo'lgan fiziologiya mexanizmlarini o'rganuvchi psixofiziologiya shakllandi.

XVIII-XIX asrlarda boshlangan hayvonlar psixik faolligini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar ekologiya, otologiya va boshqa fanlar bilan uzviy bog'langan zoopsixologiyani yuzaga keltirdi.

Psixologiyaning alohida sohasi bo'lib psixogigiena, psixoterapiya va tibbiyot deontologiyasi masalalarini, patopsixologiya (qabul qilish, xotira, tafakkur va boshqalar kabi

psixik jarayonlarning izdan chiqish qonuniyatlarini tadqiq etuvchi), neyropsixologiya (psixik jarayonlarning bosh miya ma'lum tuzilmalari bilan aloqasini o'rganuvchi) va psixokorreksiyaning o'rganuvchi tibbiyot psixologiyasi hisoblanadi.

Bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'langan bolalar psixologiyasi (bola psixik rivojlanishining qonuniyatlarini o'rganadi) va pedagogik psixologiya (maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sharoitida psixikani tadqiq etib, ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslarini ishlab chiqadi), yosh psixologiyasi (o'rganish predmeti psixikaning yosh xususiyatlari), mehnat psixologiyasi (issleduet mehnat jarayonida psixik faoliyat va shaxsni tadqiq etib, kasb tanlash, mehnat jamoalarini tashkil etish va boshqalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi), boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimlarini loyihalash va ularni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muhandislik psixologiyasi (<<inson - qurilma>> tizimida inson faoliyatini o'rganuvchi mehnat psixologiyasining bo'limi); koinot psixologiyasi (koinotga parvoz sharoitida psixik faoliyatning xususiyatlarini o'rganadi), ijtimoiy psixologiya (jamoada inson faoliyati va shaxslararo munosabatlarning shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etadi), qiyosiy psixologiya (o'rganish predmeti odam va hayvon psixikasi kelib chiqishi va rivojlanishidagi umumiylik va tafovutlar) kabi mustaqil bo'limlarga shakllandilar. Psixologiyaning ko'plab sohalarini quyidagi mezonlar

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida ham qisqa muddatli xotiraning quyidagi atamalarini mavjud: "bir lahzalik", "zudlik", dastlabki, qisqa muddatli va boshqalar.

Operativ xotira. Inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan faol, tezkor xarakterlar, usullar uchun xizmat qiluvchi jarayonni anglatuvchi minemik sholat operativ xotira deb ataladi. Shozirgi zamon psixologiyasida ushbu sholatni namoish qilish uchun ushbu misol keltiriladi: mamavzutik amalni bajarishga kirishar ekanmiz, biz uni muayyan bo'laklarga ajratib hal qilishni maqsad qilib qo'yamiz. Shu boisdan, oraliq natijalarini yodda saqlashga intilamiz, nishoyasiga (oxirga, yakunlanishga) yaqinlashgan sari ayrim materiallar esdan chiqib boshlaydi.

Yakunlab aytganda hozirgi zamon ilm - fanining qadri va ahamiyati uning nechog'li amaliyotga kirib borib, tadbiqiy salohiyati ortib borishi bilan baholanadi. Psixologiyaning oxirgi yillardagi taraqqiyoti ham aynan ana shu mezon talablariga javob berishi bilan xarakterlanadi.

Amaliy hamda tadbiqiy psixologiya sohalarining o'ziga xos jihatlari avvalo shundan iboratki, ular jamiyatning bevosita bugungi kundagi talablari va buyurtmalariga ko'ra ish yuritadi.

Jamiyatimizda esa psixologik bilimlarni bevosita amaliyotga tadbiq etishga ehtiyoj katta.

Birgina O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturini oladigan bo'lsak, uning bajarilishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun psixologiyaning aralashuvi zarur. Joylarda tashkil etilgan Tashhis markazlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar o'quvchilardagi rivojlanish ko'rsatkichlari, aqliy o'sish omillari va iqtidoriga qarab ta'lim - tarbiyani tashkil etishlari uchun qator diagnostik tadbirlarni o'tkazishlari zarurki, bu tadbirlar oxir - oqibat aniq

samara berishi lozim. Ta'kidlash zarurki, tadbiqiy psixologiyadagi «samara»ni o'lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi samara tushunchalari biroz farq qiladi. Ya'ni, bu yerda bevosita buyurtmaning bajarilishi sifatiga buyurtmachining o'zi baho beradi. SHuning uchun ham amaliy psixologiyaning alohida tarmog'i bo'lmish sotsial psixologiya bilimlarga amaldagi ehtiyojni uch asosiy sabab bilan tushuntirishi mumkin:

a) kichik korxona yoki yirik firmalardan tortib, toki xukumat darajasidagi idoralar ham o'z faoliyati samaradorligini oshirish uchun tobora insonlar faoliyati va ulardagi rezervlardan omilkorona foydalanishning psixologik manbalarini qidirish lozimligini tushunib yetmoqdalar;

b) professional psixologlarning o'zi ham o'z ishlaridan keladigan obro' - e'tiborning amaliy sohalarida ishlay olish qobiliyatlariga bog'liq ekanligini tushunib yetmoqdalar;

v) amaliyotda ishlayotgan boshqa soha vakillari ham agar psixologik tayyorgarlikdan o'tgan bo'lsalar, ishni tashkil qilishga o'quvlari yaxshirok va ishlari unumliroq bo'lishini tushunib yetmoqdalar.

Shuning uchun ham ko'plab yangi turdagi markaz va firmalar, qo'shma korxonalarda ham hozirgi kunda amaliyotchi psixologlar ishlamoqdalar.

REFERENCES

1. E.G'oziyev **“Umumiy Psixologiya”** Psixologiya mutaxassisligi uchun o'quv qo'llanma II –kitob Toshkent - "Universitet" - 2002
2. B .M . Umarov **“Psixologiya”** «Voriz-Nashriyot» Toshkent – 2012
3. F.Xaydarov, N.i.Xalilova **“Umumiy Psixologiya” (Darslik) Toshkent-2010**
4. Babasheva B. G., Sanjarbek Y. SHAXSLARDA MUNOSABAT TURLARI VA MULOQAT HAQIDA TUSHUNCHA //The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 9-12.
5. Babasheva B. Effective Methods of Instructing Primary Class Students to Creative Thinking //Journal of Advanced Zoology. – 2023. – T. 44.
6. Babasheva B. G. Some Issues of Transmission of Written and Oral Speech of Primary Schoolchildren //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 4. – №. 6. – C. 13-16.
7. Бабашева Б. Г. ТАҚҚОСЛАШ ЁКИ ҚИЁСЛАШГА ДОИР МУСТАҚИЛ ИШЛАРГНИНГ БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАР БИЛИМИНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 14-15.
8. Бабашева Г. Б. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ЛУҒАТ УСТИДАГИ ИШЛАР ОРҚАЛИ НУТҚИНИ ВА ФИКРЛАШ ҚОБИЛЯТИНИ

РИВОЖЛАНТИРИШ: Бабашева Гулзабира Бектемировна, катта ўқитувчиси., п. ф. ф. д (PhD) «Умумий педагогика ва психология» кафедраси, Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти, Ўзбекистон Маденова Несибели Абдбайевна 70110501-«Таълим ва тарбия назарияси ва методикаси (бошланғич таълим)» мутахассислиги 2-босқич магистранти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 12.3. – С. 49-53.

9. Ergashevna G. G. CREATIVE THINKING AS A PSYCHOLOGICAL FACTOR DETERMINING STUDENTS'LEARNING CHARACTERISTICS //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 157-162.